

PROKUROR NAZORATI OSTIDA TERGOV ORGANLARINING FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH

Fazliddinov Sherzod Shamsiddin o'g'li

Toshkent shahar Yangihayot tumani prokuraturasi tergovchisi, 3-darajali yurist

E-mail: fazliddinov.s@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada mamlakatimizda tergov faoliyatini amalga oshiruvchi organlar faoliyati ustidan prokuror nazorati hamda pokuror nazorati ostida dastlabki tergov organlarning faoliyatini muvofiqlashtirish, tergov faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha so'z boradi.

Kalit so'zlar: tergov organlari, prokuratura, dastlabki tergov, tergovchi, jinoyat, muvofiqlashtirish.

Bugungi kunda prokuratura organlarining faoliyati mamlakatimizda qonuniylikni ta'minlash, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilishini tezkorlik bilan aniqlash va bartaraf etishning muhim mexanizmidir. Prokuraturaning maxsus huquqiy maqomi – mamlakat hududida Konstitutsiya va qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni olib borish funksiyasi prokuratura organlarining qonuniylikni ta'minlash faoliyatini muvofiqlashtiruvchi muhim organ ekanligidan dalolat beradi.

Prokuror nazorati tergov jarayonining qonuniy va samarali olib borilishini ta'minlashning muhim mexanizmi bo'lib, u jinoyat-protsessual tizimning uzviy qismi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida prokurorning tergov jarayonidagi vakolatlarini batafsil belgilab bergan bo'lib, uning tergov organlari ustidan nazorat qilish va muvofiqlashtirish vazifasini o'z ichiga oladi. Bu vakolat jinoyat ishi bo'yicha qonunchilik talablariga rioya etilishini kafolatlash, dalillarni to'plash jarayonining qonuniyligi va shaxslarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan.

“Prokuratura to'g'risida”gi Qonunning 4-moddasida prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari keltirib o'tilgan bo'lib, ular jumlasiga tezkor-qidiruv faoliyatni, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish kabi ustuvor vazifalari sanab o'tilgan^[1].

Prokuratura organlari tomonidan tergovga qadar tekshiruv, tezkor-qidiruv, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat yo'nalishi o'z xususiyati va mohiyatiga ko'ra, prokuratura organlarining ish faoliyatida alohida o'rin tutadi.

Binobarin, prokuratura organlari tomonidan jinoyatchilikka qarshi kurash, dastlabki tergov va surishtiruv o'tkazishda qonunlarning ijrosi ustidan samarali nazoratni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar va bu organlarning jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatini muvofiqlashtirish natijasida mamlakatimizda jinoyatchilik dinamikasida kamayish holati qayd etilib mamlakatda barqarorlik kuzatilib, xalqimizning osoyishtaligiga erishilayotgani shubhasizdir [2].

Bugungi kunda mamlakatimizda jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni prokuratura, ichki ishlar organlari va davlat xavfsizlik xizmatining tergovchilari olib borishini inobatga oladigan bo'lsak, prokuror mazkur tergov organlari o'rtasida o'ziga xos "muvofiqlashtiruvchi ko'pri" vazifasini bajaradi.

Prokuratura organlariga O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar orqali qonunlar ijrosi ustidan nazorat funksiyasidan tashqari, bir vaqtning o'zida jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasi ham yuklatilgandir. Shu munosabat bilan ham barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlar har oy, chorak va yillik hisobotlarini prokurorlarga topshiradilar.

Prokurorlar bu statistik hisobotlardan sodir etilgan jinoyatlar, ularning xarakteri, jinoyatlarning kelib chiqish shart-sharoitlari, jinoyatlarning kelib chiqish sabablari, kim tomonidan sodir etilganligi, kimga nisbatan sodir etilganligi, voqea sodir etilgan joy, vaqt, jinoyat sodir etish uslubi, jinoyat qurolining turi va hokazolar haqidagi ma'lumotlar majmuasidan jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirilib, tegishli reja tuzish va tadbirlar o'tkazishda foydalanadilar [3].

Muvofiqlashtirishning asosiy maqsadi jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi har bir huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o'zaro hamkorlikda harakat qilishini ta'minlash, jinoyatlarni tez, to'la va har tomonlama tergov olib borib aniqlash hamda tegishli vakolatli davlat organlariga jinoyatlarning vujudga kelish sabab va shart-sharoitlarini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish hisoblanadi.

Protsessual qonunchiligimizga ko'ra, prokurorning jinoyat ishi yuzasidan yozma ko'rsatmalar berish, tergov jarayonida qonunbuzarliklarni bartaraf etish va tergovning xolisligini ta'minlash, tergov jarayonida protsessual xatoliklarga yo'l qo'ymaslik va qonuniylikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Tergov jarayonida prokuror vakolatlari huquqiy himoya va adolatni ta'minlash, tergovchi tomonidan olib borilayotgan harakatlarni nazorat qilish bilan birga, jabrlanuvchi, gumonlanuvchi yoki guvohlarning protsessual huquqlarini himoya qilishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, JPKning 37-moddasiga ko'ra, tergovchi o'z mustaqilligini saqlab qoladi, ammo prokuror nazorati qonuniylikni ta'minlashda muvofiqlashtiruvchi rolni bajaradi.

Prokuror kompetensiya nizolarini hal qilishda o'zining JPKda belgilangan vakolatlariga tayanadi. U jinoyat ishini qaysi organ tomonidan ko'rib chiqilishini belgilash va jarayonni muvofiqlashtirish huquqiga ega bo'lib, bu nafaqat tergov organlari o'rtasidagi nizolarni bartaraf etadi, balki har bir organning o'z vakolatlari doirasida ishlashini ta'minlaydi. Masalan, terrorizmga oid jinoyatlarda ichki ishlar organlari va maxsus xizmatlar ishtirok etishi kerak bo'lgan holatlarda prokuror ularning vazifalarini aniq ajratib beradi va jarayonning qonuniy olib borilishini ta'minlaydi.

Shuningdek, jinoyat ishlarining xususiyati va murakkabligiga ko'ra, bir vaqtning o'zida bir nechta organlarning vakolatlariga tegishli holatlar yuzaga kelishi mumkin. Bunday hollarda prokuror nizoni hal qilish va ishni qaysi organ yuritishini aniqlashda hal qiluvchi vakolatga ega ^[4].

Protsessual qonunchilikka ko'ra, tergov olib borishda boshqa dastlabki tergov organining tergoviga tegishli yangi jinoyat aniqlansa yoki turli dastlabki tergov organlari tergoviga tegishli jinoyat ishlari bitta ish yurituvga birlashtirilganda prokurorning roziligi bilan amalga oshirilishi belgilab berilgan ^[5]. Bu ham esa o'z navbatida prokurorning tergov tarmoqlari ustidan olib boradigan nazoratning asosiy ko'rinishlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda tergovchilar o'rtasida ustoz-shogird an'anasi mavjud bo'lib, hozirgi vaqtga kelib mazkur an'ana uzilib qolgan deyish mumkin va natijada yosh, tajribasiz tergovchilar tomonidan dastlabki tergov harakatlarini amalga oshirishda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Natijada, ba'zi tergovchilar o'ziga yordamchi sifatida uzoq yillar ishlagan, hozirda boshqa faoliyat bilan shug'ullanayotgan sobiq xodimni pul evaziga yordamchi qilib olganligi hech kimga sir emas. Ammo, ushbu yordam beg'araz emas, uning ham o'ziga yarasha "stavka"si bo'ladi. Yosh, tajribasiz, cho'ntagi ko'tarmaydigan tergovchilar esa jinoyat ishini o'zining bilimi doirasida tergov qilmoqda va tergovning ba'zi joylarida turli xildagi kamchiliklarga yo'l qo'ymoqda. Bu esa jinoyat ishining mukammal tergov qilinmasligi bilan bir qatorda sudning natijasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Yuqoridagi holatlarni kamaytirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi, har bir viloyat va Toshkent shahar prokuratura mahkamalaridagi 15-bo'lim (tergov tarmoqlari ustidan nazorat)da yosh tergovchilar uchun ustoz vazifasini bajaradigan, ularga yo'l-yo'riq ko'rsatadigan, tergov rejasini tuzishda va boshqa tergov harakatlarini bajarishda o'ziga xos tavsiya va takliflarini berib boradigan, tergovchining xatolarini o'z vaqtida tuzatadigan ko'p yillik tajribaga ega, tergovchi lavozimida ishlagan xodimlarni tergovchilar uchun ustoz qilib qo'yilishi maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, prokurorning nazorati nafaqat tergov jarayonining qonuniyligini, balki uning samaradorligini ham ta'minlaydi. Tergov jarayonida xatoliklarga yo'l

qo'yilishi, dalillarni noto'g'ri to'plash yoki protsessual normalarning buzilishi nafaqat tergov organlari faoliyatiga, balki sud jarayonining natijasiga ham ta'sir qilishi mumkinligi bois, prokuror nazorati tergov jarayonini to'g'ri yo'nalishga soluvchi vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Dastlabki tergovda qonuniylik ustidan nazorat qilish prokuror uchun jinoiy ta'qibga rahbarlik qilish vositasi sanaladi. Surishtiruv va dastlabki tergov, tezkor-qidiruv faoliyatida qonunlarga rioya etilishi, shuningdek mazkur faoliyat turlarini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning qonuniyligi, asoslilikini nazorat qilish orqali prokuror jinoyat ishi bo'yicha o'zaro hamkorlikda ish olib boruvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning rahbari hamda muvofiqlashtiruvchi "tashkilotchi" vazifasini bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, prokuror tomonidan tergov tarmoqlarini muvofiqlashtirishning asosiy maqsadi tergov jarayonining qonun doirasida olib borilishini ta'minlash, tergov jarayonida inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, tergov organlarining samaradorligini oshirish va adolatli sudlov jarayonini kafolatlashdir. Kompetensiya nizolarini hal qilishda esa prokuror tergov organlari o'rtasida muvozanatni saqlaydi va jarayonni qonuniy yo'nalishda olib boradi hamda tergov jarayonining uzviyligini ta'minlaydi. Bu nafaqat tergov organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi, balki ular o'rtasidagi hamkorlikni oshirib, prokuror tomonidan qabul qilingan qarorlar adolatli va qonuniy bo'lishini ta'minlash uchun milliy qonunchilik talablariga, shuningdek, xalqaro standartlarga asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jinoyat-protsessual kodeksi // Qonunchilik hujjatlari milliy bazasi// O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-y., 2-son. <https://lex.uz/docs/-111460>.
2. "Prokuratura to'g'risida"gi Qonun // Qonunchilik hujjatlari milliy bazasi //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son.
3. O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuniga sharh – Toshkent-2024. -39-bet
4. "Prokuror nazorati" dasrluk, «Yuridik adabiyotlar publish» 2023, 108-bet.
5. Raxmankulov A.X., Mirazov D. - Dastlabki tergov. Darslik. T.: Toshkent-2015. 88-bet;